

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi 100% aksiyalar paketiga
egalik qiluvchi yagona aksiyadori “UzAuto Passenger Vehicles Management”
MChJning, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar
bo‘yicha 49-2024/09-sonli qarori**

Toshkent sh.
A.Temur ko‘chasi, 13-uy

2024-yil 6-sentabr
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) 2024-yil 6-sentabr holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Jamiyatning 139 837 000 000 dona, ya’ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2024-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyat ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

1. Jamiyat ijro organi rahbariga intizomiy jazo chorasi qo‘llash to‘g‘risida.

Mazkur masala bo‘yicha so‘zga chiqqan Jamiyatning xodimlar bilan ishlash departamenti direktori I.Abdullayev O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydai 283-qarori ijrosi muxokamasi bo‘yicha “O‘zavtosanoat” AJning 2024-yil 29-avgustdagi 14-01-11-18-sonli bayoni qabul qilinganligi to‘g‘risida ma’lumot berib, mazkur bayonga ko‘ra tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorliklarni bartaraf qilish bo‘yicha o‘z vaqtida chora ko‘rmaganliklari uchun Jamiyat rahbariga “Ish haqining 5% miqdorida jarima” tarzidagi intizomiy jazo chorasi tayinlanishi belgilab o‘tilganligini qayd etdi. Yuqoridagilarni inobatga olib,

Qaror qiladi (139 837 000 000 ovoz, 100%):

1. Jamiyatning tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorliklarini o‘z vaqtida bartaraf etish choralari ko‘rmaganligi uchun, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga asosan Jamiyat bosh direktori Bo Inge Anderssonga ish haqining 5% miqdorida jarima tariqasidagi intizomiy jazo chorasi qo‘llanilsin;

2. Jamiyat bosh direktori Bo Inge Andersson mazkur qaror bilan tanishtirilsin;




3. Qaror ijrosini ta’minlash choralari ko‘rish Jamiyatning Xodimlar bilan ishlash departamenti direktori (I.Radjabov) va Moliya direktoriga (I.Abdullayev) yuklatilsin.

Ushbu qaror 2024-yil 11-sentabr kuni imzolandi.

«UzAuto Passenger Vehicles
Management» MChJ nomidan
Bosh direktor


B.B.Axunov

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi 100% aksiyalar paketiga
egalik qiluvchi yagona aksiyadori “UzAuto Passenger Vehicles Management”
MChJning, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar
bo‘yicha 49-2024/09-sonli qarorining kelishish varaqasi**

Kiritildi: A.Alibayev 			
Kelishildi:			
Yuqori turuvchi tarmoq Jamiyat va undagi tuzilma rahbarlarining F.I.Sh.	Loyihani olgan sanasi	Loyiha bilan kelishgan sanasi	Jamiyat rahbariyati va tuzilma rahbarining imzosi
X.Nuriddinova			
S.Gafarov			
U.Qosimov			